

**Doimiy aholi soni.** Samarqand viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktabr holatiga 3857,0 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 58,1 ming kishiga yoki 1,5 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1433,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,2 %), qishloq aholisi soni 2424,0 ming kishini (62,8 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**  
**2019 yil yanvar-sentabr**

Doimiy aholi soni **58,3 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **73,9 ming nafarni** tashkil etdi.

**11,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'limlarida **23,0 mingta nikoh** va **2,6 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

### Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-sentabr, ming kishi)

	2018 y.	2019 y.
<b>Doimiy aholi soni, (1 oktabr holatiga)</b>	<b>3777,9</b>	<b>3857,0</b>
Tug'ilganlar	71,9	73,9
Vafot etganlar	11,4	11,8
Aholining tabiiy o'sishi	60,5	62,1
Kelganlar	9,3	6,2
Ketganlar	12,1	10,2
Migratsiya sa'ldosi	-2,8	-4,0
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	23,8	23,0
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	2,8	2,6
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	25,7	25,8
o'lim	4,1	4,1
aholining tabiiy o'sishi	21,6	21,7
tuzilgan nikohlar	7,0	8,0
nikohdan ajralishlar	0,9	0,9
<b>2019 yil yanvar-sentabr</b>	<b>Demografik holat</b>	


## Doimiy aholi soni

(1 oktabr holatiga, ming kishi)

	2018 y.	2019 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3777,9</b>	<b>3857,0</b>	<b>102,1</b>
Samarqand sh.	535,9	544,7	101,6
Kattaqo'rg'on sh.	87,7	89,2	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	154,7	157,8	102,0
Bulung'ur	181,8	185,4	102,0
Jomboy	166,3	170,8	102,7
Ishtixon	246,2	251,6	102,2
Kattaqo'rg'on	265,6	270,9	102,0
Qo'shrabot	127,6	130,4	102,2
Narpay	207,8	211,5	101,8
Payariq	242,7	248,2	102,3
Pastdarg'om	344,1	351,3	102,1
Paxtachi	140,7	143,3	101,8
Samarqand	245,0	250,0	102,0
Nurobod	146,1	149,1	102,1
Urgut	490,9	503,6	102,6
Tayloq	194,8	199,2	102,3

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi


(2019 yil 1 oktabr holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahrida viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,1 %ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Urgut 13,1 %ni, Pastdarg'om 9,1 %ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida 7,0 %ni tashkil etgan.


**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 73 898 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,8 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 25,7 promille bo'lgan) kuzatildi.

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr)




**Ma'lumot uchun:** *Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*

## Hududlar kesimida tug'ilganlar soni (yanvar-sentabr, kishi)




**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 11 763 kishining o'limi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan o'zgarish kuzatilmadi (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,1 promille bo'lgan).


## Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr)



## Samarqand viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (yanvar-sentabr)



## Hududlar kesimida go'daklar o'limi koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr holatiga; 1000 tirik tug'ilganga nisbatan)




2019 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,5 foizi - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,8 foizi - o'simtalardan, 5,6 foizi - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,7 foizi - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,5 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,3 foizi - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,6 foizi - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 66,3 foizi - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 14,4 foizi - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 10,4 foizi - tug'ma anomaliyalardan, 1,8 foizi - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,6 foizi - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,8 foizi - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 4,7 foizi - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

## Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-sentabr holatiga; jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



■ Qon aylanish tizimi kasalliklari

■ O'simtalardan

■ Boshqa kasalliklardan


■ Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan

■ Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan

■ Nafas olish a'zolari kasalliklaridan

■ Yuqumli va parazitlar kasalliklaridan

**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 79 137 kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 2 564 kishiga (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 76 573 kishi bo'lgan) o'sgan.



**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 23 026 kishi nikohi qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Payariq (2,7 %), Urgut (2,3 %), Narpay (1,7 %), Bulung'ur (1,5 %), Tayloq (1,3 %) va Qo'shrabot tumanlariga (0,7 %) to'g'ri kelmoqda.

### Samarqand viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-sentabr)




**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 2 588 kishini nikohdan ajralishlari qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.


2018 yilning mos davriga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyentining sezilarli darajada o'sishi kuzatilmadi, aksincha kamayish Samarqand shahrida (1,8 dan 1,4 promillega), Ishtixon (0,7 dan 1,0 promillega), va Samarqand (1,3 dan 1,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.

## Hududlar kesimida nikoh tuzganlar va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti

(2019 yil yanvar-sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



## Samarqand viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-sentabr)



**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6 176 kishini ko'chib ketganlar soni esa 10 181 kishini tashkil etdi. Migratsiya sa'ldosi minus 4 005 kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 2 666 kishi bo'lgan.

**Aholi migratsiyasi (kishi)**

	<b>2018 yil yanvar-sentabr</b>	<b>2019 yil yanvar-sentabr</b>
Ko'chib kelganlar	9 309	6 176
Ko'chib ketganlar	11 975	10 181
Migratsiya sa'ldosi	-2 666	-4 005

Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Payariq (minus 674 kishi), Kattaqo'rg'on (minus 601 kishi), Urgut (minus 486 kishi), Ishtixon (minus 346 kishi), Bulung'ur (minus 339 kishi), Oqdaryo (minus 330 kishi), Nurobod (minus 294 kishi), Paxtachi (minus 267 kishi) Qo'shrabot (minus 225 kishi) va Pasterdarg'om tumanlarida (minus 209 kishi) qayd etildi.

Migratsiya sa'ldosining ijobiy darajasi Jomboy tumanida (plus 171 kishi), Samarqand (plus 37 kishi) va Tayloq tumanlarida (plus 6 kishi) kuzatildi.

**Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi**  
(71) 230-85-36